

**Qishloq xo'jaligi vazirligida 2023-yil 1-choragi uchun korrupsiyaga qarshi  
kurashish tizimining amal qilishi haqida  
UMUMIY HISOBOT \***

**I. Korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar dasturi bajarilgani to'g'risida umumiy axborot**

Qishloq xo'jaligi vazirligining 2023 yil 28 fevraldagi "Qishloq xo'jaligi vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan tadbirlarni amalga oshirishda tizimli yondashuvni joriy etish to'grisida"gi 31-sonli buyrug'i qabul qilinib, buyruq bilan Qishloq xo'jaligi vazirligining 2023-yilda korrupsiyaga qarshi kurashish ishlari samaradorligini oshirish bo'yicha mexanizm va huquqiy asoslarini yaratish hamda amaliyotga tatbiq etish yuzasidan chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi. Buyruq bilan vazirlik tizimidagi tashkilotlar hamda muassasalarda Yo'l xaritasida belgilangan vazifalarni o'z muddatlarida amalga oshirilishini ta'minlashliklari belgilab qo'yildi.

Jumladan, chora-tadbirlar dasturida vazirlikda korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini baholashning aniq mexanizmlarini ishlab chiqish, ichki idoraviy hujjatlarni ishlab chiqish va yangilab borish, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki idoraviy mexanizmlarni joriy etish, manfaatlar to'qnashuvi tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish va muntazam ravishda monitoring o'tkazish tartibi belgilangan.

Amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarni korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazib borishni yo'lga qo'yish maqsadida "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 22 oktyabrdagi PQ-5263 - son qarori ijrosi to'g'risida"gi 2021 yil 5 noyabrda vazirlikning 247-sonli buyrug'i qabul qilinib, buyruq bilan 2023 yilda huquqiy hujjatlarni korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish rejasi tasdiqlanib, begengi kunda vazirlik tomonidan bir nechta qonun va qonunosti hujjatlar ekspertizadan o'tkazilmoqda.

**II. Siyosat va tartib-taomillar**

Qishloq xo'jaligi vazirligining 2023-yil 29-martdagi Ichki idoraviy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 56-sonli buyrug'i tasdiqlanib, buyruq bilan Qishloq xo'jaligi vazirligi, hududiy va tarkibiy tuzilmalar hamda muassasalarga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni o'rganish bo'yicha Yo'riqnoma va Qishloq xo'jaligi vazirligi, hududiy va tarkibiy tuzilmalar hamda muassasalari xodimlarining etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitilishini tashkil qilish bo'yicha Yo'riqnomalar tasdiqlandi.

Shuningdek, Qishloq xo'jaligi vazirligining 2023 yil 28 fevraldagi "Qishloq xo'jaligi vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan tadbirlarni amalga oshirishda tizimli yondashuvni joriy etish to'grisida"gi 31-sonli buyrug'i qabul qilinib, buyruq bilan Qishloq xo'jaligi vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi qabul qilindi.

**III. Xavf-xatarlarni baholash**

Qishloq xo'jaligi vazirligi Ichki audit va komplayens-nazorat bo'limi tomonidan Qishloq xo'jaligi vazirligining 107 funksiyasidan 50 ta funksiyasi bo'yicha korrupsiyaviy

xavf-xatarlar xaritasi shakllantirilib, ushbu funksiyalar bo'yicha mavjud xavf-xatarlarni baholash jarayonlari amalga oshirildi.

Baholash jarayonlari natijalari bilan vazirlikda korrupsiya xavfiga eng ko'p moyil bo'lgan funksiya va tuzilmalar ro'yhati shakllantirildi. Vazirlikning ayrim funksiyalarida korrupsiyaviy xavf-xatarlar mavjud emasligi sababli, ular bo'yicha korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash amalga oshirilmadi. 2023 yilning ikkinchi kvartalida ushbu aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni boshqarish bo'yicha tegishli chora tadbirlar va xavf xatarlarni minimallashtirish bo'yicha tegishli chora tadbirlari belgilanib, amalga oshirish mexanizmlari ishlab chiqiladi.

Shuningdek, vazirlik hududiy boshqarmalari va tizim tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ullarni jalb qilgan holda xavf-xatarlarni baholash jarayonini tashkillashtirish va korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash jarayoni ustidan umumiy nazoratni amalga oshirish choralari ko'rib kelinmoqda. Shu bilan birga, vazirlik hududiy boshqarmalari va tizim tashkilotlaridagi tuzilmalarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Uslubiyotda ko'zda tutilgan tartibga rioya qilish bo'yicha maslahatlar berib kelinmoqda.

#### **IV. Amalga oshiriladigan korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillar**

##### **Manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish:**

Vazirlik tomonidan O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligida manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha Nizom talablariga muvofiq vazirlik xodimlari o'rtasida manfaatlar to'qnashuvini oldini olish maqsadida "Manfaatlar to'qnashuvining mavjudligi/mavjud emasligi haqidagi arizalar"ni to'ldirish tizimi joriy qilib, mavjud xodimlardan yillik to'ldiriladigan arizalar va ishga yangi kirgan xodimlardan ishga yangi kirganda to'ldiriladigan arizalar to'ldirilgan holatda qabul qilib olindi va to'ldirilgan manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha deklaratsiyalar tahlil qilib chiqildi. Tahlillar davomida vazirlikda manfaatlar to'qnashuvi holatlari aniqlanmadi.

Shuningdek, vazirlikda xodimning o'zi tomonidan mavjud manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida xabar berish, yani vazirlik xodimining yaqin qarindoshlari va unga aloqador bo'lgan shaxslar mazkur xodimning mehnat qilayotgan tashkiloti bilan huquqiy munosabatga kirishayotganida manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida yozma yoki elektron shaklda xabar berishi tizimi joriy qilindi.

##### **Korrupsiyaga qarshi qoidalarni vazirlik shartnomalariga kiritish:**

Qishloq xo'jaligi vazirligi va kontragentlar bilan tuziladigan xo'jalik shartnomalariga korrupsiyaga qarshi qoidalarni kiritish joriy qilingan bo'lib, ushbu korrupsiyaga qarshi qoidalar kiritilmagan shartnomalar bo'yicha kontragentlar bilan shartnomalarni bekor qilish bo'yicha tegishli choralar ko'rildi.

##### **Kontragentlarni tekshirish:**

Qishloq xo'jaligi vazirligida xarid qilish tartib-taomillari, shu jumladan to'g'ridan-to'g'ri shartnoma tuzishda manfaatlar to'qnashuvi va shaxsiy manfaatdorligi bilan bog'liq bo'lgan korrupsiyaviy xatarlarni, insofsiz ijrochi bilan shartnoma tuzish xatarini kamaytirish va xarid jarayoni ishtirokchisining shartnomada belgilangan tovarlarni

yetkazib berish yoki xizmat ko'rsatish, ishlarni bajarish imkoniyatini baholash maqsadida kontragentlarni tekshirish tizimi joriy etildi.

2023-yil davomida vazirlik tomonidan amalga oshirilgan 10 ta xaridlar yuzasidan xarid jarayonlari ishtirokchilarini tekshirish, shu jumladan, ular o'rtasidagi aloqa mavjudligi ehtimoli nuqtai-nazaridan o'rganish o'tkazildi. O'rganish natijalari bo'yicha kontragentlar bilan shartnoma tuzish to'g'risidagi barcha holatlarda ijobiy xulosalar qabul qilindi.

#### **Ishga nomzodlarni tekshirish:**

Vazir markaziy apparatiga nomzodlar ishga qabul qilishda nomzodlarning lavozim majburiyatlarini bajarish uchun yetarli bilim va tajribaga egaligi, uning professional faoliyati, boshqa jismoniy va yuridik shaxslar bilan qarindoshlik va tijorat aloqalari, huquqbuzarliklar sodir etishga moyil emasligi, rahbarlik va moddiy javobgarlik bilan bog'liq lavozimlarga bilimli, halol, vijdonli, qonunga itoatkor xodimlarni tanlab olish joriy qilingan.

Jumaladan, vazirlik markaziy apparati yangi ishga qabul qilingan jami 10 nafar nomzodlar ustidan tekshiruvlar o'tkazildi. Tekshiruv natijalari bo'yicha ushbu nomzodlar bo'yicha barcha holatlarda ijobiy xulosalar qabul qilindi.

#### **V. Ta'lim va kommunikatsiya**

Vazirlik xodimlari, shu jumladan, ishga yangi qabul qilingan xodimlarni vazirlikning hr.agro.uz platformasi va Vazirlikning Koplayens nazorat telegram kanali orqali korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha muntazam o'qitib borilmoqda. Xar bir xodim hr.agro.uz platformasiga o'z login parollari orqali kirishib, joylashtirilgan o'quv materiallari bilan tanishishadi va o'z malakalarini oshirishadi.

Vazirlikning Komplayens nazorat xizmati tomonidan vazirlik tizimi miqyosida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha nimalarga ahamiyat qaratish, kelgusida amalga oshirilishi lozim bo'lgan amaliy ishlarni aniqlash maqsadida xodimlar o'rtasida davra suhbatlari va seminarlar o'tkazildi. Jumladan, vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish mavzularida jami 24 ta keng ko'lamli bevosita va onlayn targ'ibot tadbirlari amalga oshirildi. Shundan, 5 ta ma'ruza, 5 ta davra suhbat va 14 ta seminar tashkil etildi. Shuningdek, vazirlik tizimida ommaviy axborot vositalari orqali jami 23 ta huquqiy targ'ibot tadbirlari amalga oshirildi.

Shuningdek, vazirlik tizimida faoliyat yuritayotgan xodimlar o'rtasida 1 ta so'rovnoma o'tkazilib, ular bir qator savollarga javob berdilar. So'rovnomalar o'tkazishdan maqsad xodimlarning korrupsion holatlarga munosabati, bunday salbiy holatlarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarda yana nimalarga e'tibor qaratish lozimligi, xizmat vazifasi jarayonlarida korrupsiyaga yo'l qo'yimaslik ko'zda tutilgan.

#### **VI. Korrupsiyaviy xatti-xarakatlar va huquqbuzarliklar to'risidagi xabarlar**

Vazirlik tizimida korrupsiya holati haqida tezkor xabar berish imkonini beruvchi 1243 qisqa raqami tashkil etilgan. Ushbu qisqa raqami orqali fuqarolar bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqotni yo'lga qo'yilgan, korrupsiyaviy holatlar haqida ma'lumotlarni qabul qilish amalga oshiriladi.

Shuningdek, korrupsiya haqida xabar berishga mo'ljallangan vazirlikning "agro.uz" rasmiy veb-sayt, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari va "UzAgroAnticorruptionBot" telegram bot tashkil etilgan.

Jumladan, Vazirlikka 2023-yil 1-choragida korrupsiya faktlariga doir kelib tushgan jami 31 ta murojaatlarning 9 tasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali, 4 tasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi orqali, 1 tasi O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi orqali, 1 tasi O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi orqali, 1 tasi boshqa tashkilotlar orqali hamda 12 tasi Qishloq xo'jaligi vazirligiga to'g'ridan to'g'ri ravishda kelib tushgan.

Shundan, 2 tasi Buxoro viloyatiga, 1 tasi Jizzax viloyatiga, 3 tasi Qashqadaryo viloyatiga, 2 tasi Navoiy viloyatiga, 1 tasi Namangan viloyatiga, 2 tasi Samarqand viloyatiga, 2 tasi Toshkent viloyatiga, 2 tasi Farg'ona viloyatiga, 9 tasi Xorazm viloyatiga, 3 tasi Toshkent shaxriga to'g'ri keladi.

Qishloq xo'jaligi vazirligiga korrupsiya faktlariga doir kelib tushgan murojatlarning ko'rib chiqish natijalari bilan, 12 ta holatda murojaatlarda keltirilgan faktlar o'z tasdig'ini topmagan bo'lib, 15 ta holatda murojaatlar o'z tasdig'ini topib, ma'sullarga nisbatan tegishli choralar ko'rildi.

Korrupsiya faktlariga doir kelib tushgan murojaatlardan kelib chiqib korrupsion xavf-xatarlarni minimallashtirish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqilib, hududiy bo'linmalar va tizim tashkilotlariga ijro uchun yuborildi.

#### **VII. Monitoring va nazorat**

Qishloq xo'jaligi vazirligi komplayens-nazorat xizmati tomonidan vazirlik tizimidagi tashkilotlarda korrupsiya bilan bog'liq holatlarni o'rganish va tegishli choralar ko'rish maqsadida 2023 yil 1-choragida 1 ta xizmat tekshiruvi o'tkazildi.


#### **VIII. Aniqlangan qoidabuzarliklar va ularga ta'sir choralari**

O'tkazilgan xizmat tekshruvlari yakuni bilan shakllantirilgan ma'lumotlar va to'plangan hujjatlar qonuniy baho berish uchun O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasiga taqdim etildi.

#### **IX. Xulosalar**

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki idoraviy hujjatlarni ishlab chiqish va tizimga joriy qilish, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish, vazirlik tizimi xodimlarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, vazirlik tizimida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish qishloq xo'jaligi sohasida olib borilayotgan keng ko'lamlislohotlarga to'siq bo'layotgan illatlarni bartaraf etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Ichki audit va komplayens  
nazorat bo'limi boshlig'I**



**O. Muradov**